

Maqola turi (Maqola, Pedagogika, Asl maqola)

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar orqali muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Pulatova Odinaxon Xamidovna  ^{1*}

¹ University of economics and pedagogy; Andijon; O'zbekiston; opolatova@gmail.com.

* Yozishmalar: opolatova@gmail.com; +998905274246: (171003; Andijon viloyati, Oltinko'l tumani, Mehnat MFY, Do'stlik ko'chasi 45-uy; University Of Economics And Pedagogy NOTM; Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri; Andijon; O'zbekiston)

Abstrakt

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida muloqot madaniyatini rivojlantirishda interaktiv ta'lim metodlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik ahamiyati, interaktiv metodlarning o'quvchilar va talabalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, interaktiv ta'lim texnologiyalari orqali shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish, jamoada ishlash, fikr almashish va bahs-munozara madaniyatini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi samarali muloqotni ta'minlovchi pedagogik omillarni aniqlash va ularning ta'lim sifatiga ta'sirini yoritishdan iborat. Tadqiqot jarayonida pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni o'rganish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining kommunikativ kompetentligi, ta'lim muhitining qulayligi, o'quvchilarning faolligi, hamkorlikka asoslangan pedagogik yondashuvlar hamda, interaktiv ta'lim metodlaridan foydalanish ta'lim jarayonida samarali muloqotni shakllantirish, shaxsning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Tadqiqot yakunida ta'lim jarayonida samarali muloqotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi hamda ularning amaliy ahamiyati asoslandi.

Kalit so'zlar: pedagogik muloqot, ta'lim jarayoni, kommunikativ kompetentlik, o'qituvchi, o'quvchi, hamkorlik, pedagogik muhit, interaktiv metodlar, kommunikatsiya, ta'lim sifati, pedagogik texnologiyalar, muloqot madaniyati

Type of the Paper (Article, Pedagogy, Original Paper)

Academic Editor: Mirzayev Sarvarbek Avazbekovich

Received: 10.05.2026

Revised: 22.05.2026

Accepted: 16.06.2026

Published: 26.06.2026

Copyright: © 2026 by the authors.

Submitted for possible open access

publication under the terms and

conditions of the [Creative Commons](#)

[Attribution \(CC BY\)](#) license.

Pedagogical conditions for the development of communication culture through interactive methods in the educational process

Pulatova Odinakhan Xamidovna  ^{1*}

¹ University of economics and pedagogy, Andijon; Uzbekistan; opolatova@gmail.com.

* Correspondence: opolatova@gmail.com; Tel.: (171003; Andijan region, Altynkul district, Mehnat MFY, 45, Dostlik street; University of economics and pedagogy; Head of the Department of Preschool Education; Andijan; Uzbekistan)

Abstract

This article analyzes the pedagogical conditions for using interactive teaching methods to develop a culture of communication in the educational process. The study emphasizes the pedagogical importance of developing communicative competence in the educational process and the role of interactive methods in developing the communication skills of pupils and students. It also examines the theoretical and practical aspects of developing interpersonal relationships, teamwork, exchange of ideas, and fostering a culture of discussion through interactive educational technologies. The purpose of the study is to identify pedagogical factors that ensure effective communication between participants in the educational process and to determine their impact on the quality of education. The study utilized pedagogical analysis, comparative analysis, study of scientific sources, and generalization methods. The results showed that teacher communicative competence, a comfortable educational environment, student activity, collaborative pedagogical approaches, and the use of interactive teaching methods contribute to the development of effective communication in the educational process and increased social activity. The study resulted in the development of pedagogical recommendations for promoting effective communication in the educational process and substantiated their practical significance.

Keywords: pedagogical communication, educational process, communicative competence, teacher, student, collaboration, educational environment, interactive methods, communication, quality of education, pedagogical technologies, communication culture.

1. Kirish

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish bugungi kunda pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi, o'qituvchi va talaba, shuningdek, ta'lim jarayonining boshqa subyektlari o'rtasida samarali muloqotni tashkil etish ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Globalizatsiya sharoitida shaxsning ijtimoiy faolligi, jamoada ishlash qobiliyati hamda samarali muloqot qilish ko'nikmalari ta'lim jarayonining muhim natijalaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu sababli ta'lim jarayonida muloqot madaniyatini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muloqot madaniyati shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Muloqot jarayonida shaxs o'z fikrini ifodalash, boshqalarni tinglash, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish va jamoa bilan samarali hamkorlik qilish ko'nikmalarini egallaydi[1]. Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar pedagogik faoliyatning mazmunini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta'lim jarayonida insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirishni taqozo etmoqda[2]. Bunday sharoitda pedagogik muloqotni samarali tashkil etish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim jarayonida yuzaga keladigan ko'plab muammolar, jumladan, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishining pasayishi, o'zaro tushunmovchiliklar, kommunikativ to'siqlar hamda pedagogik nizolarning kelib chiqishi ko'pincha muloqotning yetarli darajada tashkil etilmaganligi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, amaliyotda o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonida hamkorlikka asoslangan muloqot muhitini yaratish, o'quvchilarni faol muloqotga jalb etish va zamonaviy interaktiv metodlardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarga ehtiyoj mavjud. Bu esa ta'lim jarayonida samarali muloqotni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqishni dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon etadi[3].

Mazkur tadqiqotning maqsadi ta'lim jarayonida muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish hamda ta'lim amaliyotida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun pedagogik muloqotning nazariy asoslarini o'rganish, samarali muloqotga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni aniqlash, ta'lim jarayonida kommunikativ hamkorlikni ta'minlash imkoniyatlarini tahlil qilish hamda samarali muloqotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni asoslash kabi vazifalar belgilab olindi.

Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida samarali muloqotni tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirishga, pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy g'oyalar va tavsiyalar ta'lim muassasalarida pedagogik muloqotni yanada samarali tashkil etish, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda ta'lim jarayonining natijadorligini oshirishga imkon yaratadi.

2. Materiallar va usullar

Pedagogik muloqotning kommunikativ kompetentlik bilan bog'liqligi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagogning kasbiy muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning muloqot madaniyati va kommunikativ ko'nikmalariga bog'liqligi qayd etiladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda o'qituvchining kommunikativ kompetentligi ta'lim oluvchilar bilan samarali munosabatlar o'rnatish, pedagogik vaziyatlarni to'g'ri baholash, nizolarni konstruktiv hal etish va ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratishning muhim sharti sifatida e'tirof etilmoqda[4].

Mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida ham pedagogik muloqot masalasi turli jihatlarida yoritilgan. Tadqiqotlarda ta'lim jarayonida insonparvarlik tamoyillarini amalga oshirish, pedagog va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, kommunikativ madaniyatni shakllantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida samarali muloqotni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili ta'lim jarayonida samarali muloqotni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini kompleks tarzda o'rganish zarurati mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida samarali pedagogik muloqotni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ilmiy asoslash maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish hamda modellashtirish metodlari qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali muloqot madaniyatining nazariy asoslari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi pedagogik omillar hamda interaktiv ta'lim metodlarining imkoniyatlari o'rganildi[5]. Avvalo, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish hamda tahlil qilish metodi qo'llanildi. Ushbu metod yordamida pedagogik muloqotning nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari va samaradorligini belgilovchi omillar yuzasidan ilmiy manbalar o'rganildi va umumlashtirildi.

Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanilib, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari o'zaro taqqoslandi hamda samarali muloqotni tashkil etishga

doir ilg'or tajribalar tahlil qilindi. Mazkur metod pedagogik muloqotni tashkil etishda umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv metodidan ham foydalanildi. Ushbu metod asosida pedagogik muloqot ta'lim jarayonining tarkibiy elementi sifatida o'rganilib, uning o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim muhiti va pedagogik texnologiyalar bilan o'zaro aloqadorligi tahlil qilindi. Natijada samarali muloqotni ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar tizimlashtirildi va ularning o'zaro bog'liqligi aniqlandi.

Bundan tashqari, empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatish, anketa-so'rov, suhbat, diagnostik testlar hamda tajriba-sinov ishlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida talabalarining kommunikativ ko'nikmalari, jamoada ishlash qobiliyati hamda interaktiv ta'lim metodlari orqali muloqot madaniyatining rivojlanish darajasi o'rganildi. Shuningdek, tajriba-sinov jarayonida "Aqliy hujum", "Munozara", "Rol o'ynash", "Case study" kabi interaktiv metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar talabalarining o'z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarni tinglash, bahs-munozaralarda ishtirok etish hamda jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi[6].

Olingan empirik ma'lumotlar matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilinib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi aniqlandi. Mazkur metodlar asosida samarali pedagogik muloqotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili va qo'llanilgan metodlar ta'lim jarayonida samarali muloqotni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini chuqur o'rganish, mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish hamda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlarini asoslash imkonini berdi. Tadqiqotda foydalanilgan metodlarning o'zaro uyg'unligi olingan natijalarning ilmiy ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

3. Natijalar va muhokama

Tadqiqot jarayonida ta'lim muassasalarida samarali pedagogik muloqotni tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar nazariy jihatdan tahlil qilinib, jumladan, interaktiv ta'lim metodlari asosida muloqot madaniyatini rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida oliy ta'lim muassasasi talabalari o'rtasida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tadqiqotda talabalarining kommunikativ kompetensiyasi, jamoada ishlash qobiliyati, fikr almashish faolligi hamda muammoli vaziyatlarda samarali muloqot qilish ko'nikmalari o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda amalga oshirildi: dastlabki diagnostika bosqichi va yakuniy tahlil bosqichi. Dastlabki bosqichda talabalar o'rtasida muloqot madaniyatining mavjud darajasi aniqlanib, ularning kommunikativ ko'nikmalari, jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki va bahs-munozaralarda qatnashish faolligi baholandi.

1-jadval. Talabalarda muloqot madaniyatining boshlang'ich darajasi.

Table 1. Initial level of communication culture among students.

Ko'rsatkichlar	Yuqori daraja (%)	O'rta daraja (%)	Past daraja (%)
Fikrni aniq ifoda etish	30	44	26
Jamoadan ishlash qobiliyati	32	41	27
Bahs-munozarada ishtirok etish	28	46	26
Tinglash madaniyati	34	40	26

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar o'rtasida muloqot madaniyatining o'rta darajasi ustunlik qiladi. Shu bilan birga, ayrim talabalarda o'z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarni tinglash hamda bahs-munozaralarda faol qatnashish ko'nikmalari yetarli da-

rajada rivojlanmaganligi aniqlandi. Bu esa ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Tajriba-sinov jarayonida interaktiv ta'lim metodlari keng qo'llanildi. Jumladan, "Aqliy hujum", "Munozara", "Rol o'ynash", "Case-study", "Guruhiy loyiha" kabi metodlar asosida mashg'ulotlar tashkil etildi. Ushbu metodlar talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlab, ularda o'z fikrini erkin ifoda etish, boshqalar fikrini tinglash va jamoa bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Interaktiv metodlardan foydalanish talabalarning muloqot faolligini oshirib, ularning ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mashg'ulotlar davomida talabalar muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, fikr almashish va birgalikda qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etdilar.

Tajriba yakunida talabalarning muloqot madaniyati darajasi qayta o'rganildi va olingan natijalar dastlabki ko'rsatkichlar bilan solishtirildi.

2-jadval. Tajriba yakunida muloqot madaniyatidagi o'zgarishlar.

Table 2. Changes in communication culture at the end of the experiment.

Ko'rsatkichlar	Yuqori daraja (%)	O'rta daraja (%)	Past daraja (%)
Fikrni aniq ifoda etish	48	39	13
Jamoda ishlash qobiliyati	50	37	13
Bahs-munozarada ishtirok etish	46	40	14
Tinglash madaniyati	52	34	14

Natijalar shuni ko'rsatadiki, interaktiv ta'lim metodlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, yuqori darajadagi ko'rsatkichlar ancha oshgan bo'lsa, past darajadagi ko'rsatkichlar sezilarli darajada kamaygan. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar orqali tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning o'zaro muloqot qilish faolligini oshiradi, ularda hamkorlikda ishlash, muammolarni birgalikda hal qilish hamda fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli interaktiv ta'lim metodlari muloqot madaniyatini shakllantirishning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi.

O'rganishlar natijasida ta'lim jarayonida samarali muloqotni ta'minlash bir qator pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligiga bog'liq ekanligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, pedagogning kommunikativ kompetentligi, ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikka asoslangan munosabatlarni yo'lga qo'yishi, ijobiy psixologik muhit yaratishi, interaktiv metodlardan foydalanishi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishi samarali muloqotning asosiy omillari sifatida namoyon bo'ldi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining kommunikativ kompetentligi ta'lim jarayonidagi barcha muloqot turlarining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kommunikativ kompetentlik yuqori bo'lgan pedagoglar o'quvchilar bilan erkin va ochiq muloqot o'rnatishga, ta'lim oluvchilarning fikrlarini tinglashga, ularning individual xususiyatlarini hisobga olishga hamda pedagogik vaziyatlarni samarali boshqarishga qodir bo'ladilar. Bu esa o'quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlashi va ta'lim motivatsiyasining oshishiga xizmat qiladi.

Muhokama natijalari mavjud ilmiy tadqiqotlar bilan hamohang ekanligini ko'rsatdi. Xususan, pedagogik muloqotga doir ilmiy qarashlarda kommunikativ kompetentlik, empatiya, pedagogik takt va refleksiyaning ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati

ta'kidlanadi[7]. Tadqiqot natijalari ushbu nazariy qarashlarni tasdiqlagan holda, zamonaviy ta'lim sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham samarali muloqotni rivojlantirishning muhim omiliga aylanganligini ko'rsatdi.

Shuningdek, ta'lim oluvchilar bilan konstruktiv muloqotni yo'lga qo'yish pedagogik nizolarning oldini olish, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish va ta'lim jarayonining insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirishga xizmat qilishi aniqlandi. Bu esa pedagogik muloqotning nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini ham samarali amalga oshirish imkonini beradi.

4. Xulosa

Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida samarali muloqotni tashkil etish pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini hamda, interaktiv ta'lim metodlari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu metodlar talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ularning jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda fikr almashish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi[8]. Tadqiqot davomida interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning o'z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarni tinglash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, interaktiv pedagogik metodlardan foydalanish talabalarning ijtimoiy faolligi va muloqot madaniyatini rivojlantirish bilan birga ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan samarali foydalanish talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularning kommunikativ kompetensiyasini oshirish hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos faol shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rganishlar asosida samarali pedagogik muloqotni ta'minlash o'qituvchining kommunikativ kompetentligi, ta'lim jarayonida qulay psixologik muhit yaratish, hamkorlikka asoslangan pedagogik yondashuvlarni qo'llash, interaktiv metodlardan foydalanish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali integratsiya qilish bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida pedagogik muloqotning ta'lim sifatini oshirish, ta'lim oluvchilarning bilish faolligini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni qaror toptirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslandi. Samarali muloqot ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirishi, pedagogik nizolarni kamaytirishi hamda ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishi bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari pedagogik muloqotni takomillashtirish bo'yicha maqsadli ishlarni tashkil etish, pedagoglarning kommunikativ kompetentligini muntazam rivojlantirish hamda ta'lim muassasalarida muloqot madaniyatini yuksaltirish zarurligini ko'rsatdi. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni izchil davom ettirish ta'lim sifatini oshirishga, pedagogik hamkorlikni mustahkamlashga va ta'lim tizimining zamonaviy talablar asosida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ta'lim jarayonida samarali muloqotni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash ta'limning natijadorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda zamonaviy ta'lim tizimining strategik maqsadlariga erishishning muhim omili hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari pedagogik muloqotni takomillashtirishga qaratilgan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mualliflar haqida ma'lumot:

Pulatova Odinoxon Xamidovna, ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0001-5662-1904>,

E-mail: opolatova@gmail.com, "Maktabgacha ta'lim" kafedrası mudiri, dotsent "University of economics and pedagogy" NOTM, O'zbekiston, 171003, Andijon viloyati, Oltinko'l tumani "Mehnat" MFY, Do'stlik ko'chasi 45, Tel.: +998905274246 (Yozishmalar uchun mas'ul muallif.)

About the authors:

Pulatova Odinakhan Khamidovna, ORCID ID: : <https://orcid.org/0000-0001-5662-1904>, E-mail: opolatova@gmail.com, Head of the Department of Preschool Education, Associate Professor, University of Economics and Pedagogy, Uzbekistan, 171003, Andijan region, Altinkul district, Dostlik street, 45, tel.: +998905274246 (Author responsible for correspondence.)

References

- [1] Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – B.168.
- [2] Musurmonova O. Pedagogik kompetentlik va kasbiy mahorat asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2015. – B.176.
- [3] Hasanboyeva O., To'raqulov X., Haydarov M. Pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – B.512.
- [4] Khamidovna P. O. Issues of development of the communication culture of technical students //world of science: journal on modern research methodologies. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 32-35.
- [5] Khamidovna P. O. On the Issues of Studying the Problems of Unorganized Youth //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 316-318.
- [6] Khamidovna P. O. The mechanism of developing a culture of communication in students in the educational process //Journal of Critical Reviews. – 2020. – T. 7. – №. 12. – C. 3096-3103.
- [7] Khamidovna P. O. Features of the use of modern didactic tools in technical higher educational institutions //Telematique. – 2023. – T. 21. – C. 7630-7634.
- [8] Khamidovna P. O. The role of interactive methods importance of english communication for engineering students //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 3. – C. 20-24.

Disclaimer/Publisher's Note: The statements, opinions and data contained in all publications are solely those of the individual author(s) and contributor(s) and not of JEP and/or the editor(s). JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) and/or the editor(s) disclaim responsibility for any injury to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products referred to in the content.

Nashriyot qaydi: Ushbu jurnalda chop etilgan barcha materiallarda bayon qilingan fikrlar, qarashlar va ma'lumotlar faqat muallif(lar) va materialni taqdim etgan shaxs(lar)ga tegishli bo'lib, jurnal tahririyati yoki muharrir(lar)ning rasmiy nuqtai nazarini ifoda etmaydi. JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) hamda uning muharrir(lari) mazkur nashrda keltirilgan g'oyalar, usullar, ko'rsatmalar yoki mahsulotlardan foydalanish natijasida insonlar yoki mol-mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.